

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

**TIBBIY-PEDAGOGIKA FAKUL'TETINING
FAKUL'TET VA GOSPITAL TERAPIYA,
XALQ TABOBATI VA STOMATOLOGIYA FAKUL'TETINING
ICHKI KASALLIKLAR KAFEDRASI**

**TIBBIY-PEDAGOGIKA FAKUL'TETI 5 – KURS TALABALARI UCHUN
GOSPITAL TERAPIYA FANIDAN ORALIQ VA YAKUNIY NAZORAT
TOPSHIRIKLARI UCHUN OSKE BO`YICHA
TOPSHIRIQLAR MAJMUASI**

Toshkent – 2008

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

**TIBBIY-PEDAGOGIKA FAKUL'TETINING
FAKUL'TET VA GOSPITAL TERAPIYA,
XALQ TABOBATI VA STOMATOLOGIYA FAKUL'TETINING
ICHKI KASALLIKLAR KAFEDRASI**

**TIBBIY-PEDAGOGIKA FAKUL'TETI 5 – KURS TALABALARI UCHUN
GOSPITAL TERAPIYA FANIDAN ORALIQ VA YAKUNIY NAZORAT
TOPSHIRIKLARI UCHUN OSKE BO`YICHA
TOPSHIRIQLAR MAJMUASI**

Toshkent – 2008

Tuzuvchilar: **Alyavi A.L.t.f.d.**, professor -TTA tibbiy-pedagogika fakul'tetining fakul'tet va gospital terapiya, xalq tabobati va stomatologiya fakul'tetining ichki kasalliklar kafedrası mudiri.

Qodirova SH.A. TTA tibbiy-pedagogika fakul'tetining fakul'tet va gospital terapiya, xalq tabobati va stomatologiya fakul'tetining ichki kasalliklar kafedrası katta o'qituvchisi

Umarova Z.F. TTA tibbiy-pedagogika fakul'tetining fakul'tet va gospital terapiya, xalq tabobati va stomatologiya fakul'tetining ichki kasalliklar kafedrası dotsenti

Sobirov M.O. TTA tibbiy-pedagogika fakul'tetining fakul'tet va gospital terapiya, xalq tabobati va stomatologiya fakul'tetining ichki kasalliklar kafedrası dotsenti

Siddiqova N.B. TTA tibbiy-pedagogika fakul'tetining fakul'tet va gospital terapiya, xalq tabobati va stomatologiya fakul'tetining ichki kasalliklar kafedrası assistenti.

Taqrizchilar: **Karimov M.SH.** – tfd, professor,.tibbiy–pedagogika fakul'tetining ichki kasalliklar propedevtikasi, kasb kasalliklari, gematologiya va XDT kafedrası mudiri
Abdullaev X.A. -t.f.d. – Respublika ixtisoslashtirilgan Terapiya ilmiy amaliy – markazi direktorining ilmiy ishlar bo'yicha muovini

Topshiriqlar majmuasi Toshkent Tibbiyot Akademiyasining tibbiy- pedagogika fakul'tetining fakul'tet va gospital terapiya, xalq tabobati va stomatologiya fakul'tetining ichki kasalliklar kafedrasining 2008 yil 26 avgustdagi yig'ilishida muhokama qilingan.

Bayonnoma № 1

Rais, prof:

Alyavi A.L.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Markaziy Uslubiy Kengashi terapevtik sektsiyasining 2008 yil –«_____» _____dagi yig'ilishida muhokama qilinib, nashr etishga tavsiya etildi.

Bayonnoma №

Rais, professor:

Karimov M.SH.

Toshkent Tibbiyot Akademiyasining Ilmiy Kengashida 2008 yil «_» dagi yig'ilishida ko'rib chiqilib, tasdiqlandi. **Bayonnoma №**

Ilmiy kotib, professor:

Raximbaeva G.S.

“Haqiqiy, tom ma'nodagi ta'limga mustaqil ta'lim, mustaqil tayyorlanish orqali ham erishish mumkin”

N.A. Rubakin

Test muvofikligi

1. SBE ning turli darajalari uchun xarakterli bo'lgan belgilarni aniqlang:

- | | |
|--|---|
| 1. Y Ashirin. | A. Qondagi kreatinin 0,7 mmol/l. |
| 2. kompensatsiyalashgan. | B. diurez normada. |
| 3. o'zgarib turuvchi.
(intermittirlovchi) | V. koptokcha fil'tratsiyasi 30-40 ml/min. |
| 4. Terminal. | G. qondagi mochevina 10,0-19,0 mmol/l. |

2. SBE dagi turli sindromlarni korrektsiyalovchi preparatlarni tanlang:

- | | |
|----------------------------|-----------------------|
| 1. Azotemiya. | A. kal'tsiy karbonat. |
| 2. atsidoz. | B. rekormon. |
| 3. anemiya. | V. natriy bikarbonat. |
| 4. uremik osteodistrofiya. | G. lespenefril. |

3. SSD ning mexanizmiga ta'sir etuvchi preparatlarni tanlang:

- | | |
|---------------------------------------|---|
| 1. antifibrozi dorilar. | A. dimeksid. |
| 2. tomirlarga ta'sir etuvchi dorilar. | B. plazmoferez, gemosorbtsiya. |
| 3. yallig'lanishga qarshi dorilar. | V. kal'tsiy antagonistlari, trental va
AO'F ingibitorlari. |
| 4. ekstrakorporal terapiya | G. kortikosteroidlar, NYAQP. |
| 5. mahalliy terapiya | D. penitsillamin, kolxitsin. |

4. Quyida keltirilgan kasalliklar uchun mos belgilarni aniklang:

- | | |
|-----------------------------------|---------------------------------|
| 1. podagra. | A. Geberden tugunchalari. |
| 2. revmatoidli artrit. | B. «teshik» sindromi. |
| 3. deformatsiyalovchi osteoartroz | V. erta labki bugimlar kotishi. |
| 4. Bexterev kasalligi. | G. ikki tomonlama sakroileit. |

5. Quyidagi kasalliklarga xos mezonlarni tanlang:

- | | |
|-------------------------------------|-----------------------------|
| 1. Vil'son-Konovalov kasalligi | A. qonni chiqarib tashlash. |
| 2. gemoxromatoz. | B. D-penitsillamin. |
| 3. virusdan keyingi jigar tsirrozi. | V. al'fa-interferon. |
| 4. alkogolli jigar tsirrozi. | G. urosan. |
| 5. birlamchi biliar jigar tsirrozi. | D. alkogoldan voz kechish. |

6. Quyidagi sindromlardagi EKG belgilarini aniqlang:

- | | |
|----------------------------------|--|
| 1. chap qorincha gipertrofiyasi. | A. R-V1 > 7mm. |
| 2. o'ng qorincha gipertrofiyasi. | B. R-V5+SV1 > 35mm. |
| 3. WPW sindromi. | V. to'liq AV qamal bilan birgalikda
bo'lmachalar hilpilashi |
| 4. AV kamal I darajali | G. P-Q < 0,12'' d-to'lqinning bo'lishi. |
| 5. Frederik sindromi | D. P-Q > 22'' |

7. O'tkir pnevmoniyalarni davolash uchun etiotrop antibiotiklarni aniqlang:

- 1.pnevmokokkli. A.aminoglikozidlar.
 - 2.stafilokokkli. B.azlotsillin sutkasida 24 g. gacha.
 - 3.mikoplazmali. V.eritromitsin, kloritromitsin.
 - 4.gospitali. G.penitsillin, tsefalosporinlarning I avlodi.
 - 5.ko`k yiringli tayoqchalar. D.oksatsillin, tsefalosporinlar va antistafilokokkli plazma.
- 8.Turli etiologiyali nefrotik sindromni davolashni tanlang:
- 1.sistemali qizil toshma kasalligidagi nefrit. A.delagil, unitiol, geparin.
 - 2.buyrak amiloidozi. B.trental, reopoliglyukin.
 - 3.kandli diabet. V.prednizolon, azatioprin, geparin.
 - 4.paraneoplastik nefrit. G.xirurgik davolash.
- 9.Quyidagi kasalliklarni davolashda preparatlar kombinatsiyasini tanlang:
- 1.dermatomiozit. A.kortikosteroidlar, lidaza, D-penitsillamin.
 - 2.sistemali sklerodermiya. B.GKS, tsitostatiklar, EDTA.
 - 3.reaktiv artritlar. V.NYAKP, tetratsiklin, eritromitsin.
 - 4.SKT (SKV) G.NYAKP, krizanol, tsitostatiklar.
 - 5.revmatoid artrit. D.GKS, tsitostatiklar, AK, antiagregantlar.
- 10.Kasallikning asosida qanday jarayon yotadi?
- 1.GKMP ning obstruktiv shakli A.miokardning qisqarish funksiyasining birlamchi avj oluvchi yomonlashishi
 - 2.GKMP noobstruktiv shakli B.chap qorincha bilan aorta orasidagi bosim gradientining oshishi.
 - 3.Dilyatatsiyali KMP V.chap qorinchaning diastolik bo`shashishi va to`lishini yomonlashishi.
 - 4.ekssudativ perikardit. G.miokardning kislorod bilan ta`minlanishi talabi va uning qon bilan ta`minlanishi buzilish
 - 5.YUIK D.korinchalar dilyatatsiyasi, perikardda suyuklikning tuplanishi.
- 11.Revmatik nuksonlar uchun xarakterli bo`lgan auskul'tativ belgilarni aniqlang:
- 1.aortal klapanining etishmovchiligi A. yurak cho`qqisida sistolik shovkin, I tonning susayishi va o`ngda II kovurg`a orasida II tonning kuchsizlanishi
 - 2.aorta ogzi stenozi. B.diastolik shovqin va I tonning yurak cho`qqisida kuchayishi.
 - 3.mitral klapan etishmovchiligi V.yurak cho`qqisida sistolik shovkin va I tonning susayishi
 - 4.mitral ogzi stenozi. G.tush suyagi asosida sistolik shovkin eshitilishi.
 5. Triskupidal klapanining etishmovchiligi D. Botkin –Erb nuqtasida diastolik shovqin
- 12.Qorinchalar ichi qamali uchun xarakterli bo`lgan EKG belgilarni aniklang:
- 1.Giss tutami o`ng oyoqchasi to`liq qamali. A.QRS V5-6>0,12sek, QRS V1-2 QS tipda, CHK ni aktivatsiya vaqti V5-6>0,05sek.
 - 2.Giss tutami chap oyokchasining to`liq qamali. B.YUEU chapga keskin burilgan (<30 °C), QRS III, AVF da rS tipida, RII<SII.
 - 3.Giss tutami chap oyokchasining oldingi shoxi to`liq qamali. V.QRS V1-2>0,12sek, rSR tipida, o`ng qorincha aktivlik vaqti V1-2>0,03sek.

13. Quyidagi kasalliklarga xos EXOKG belgilarini tanlang:

- | | |
|---|--------------------------------------|
| 1. mitral klapan tavaqalari | A. infarktdan keyingi kardioskleroz. |
| «baliq tomog'i» ga o'xshash, chap qorincha dilyatatsiyasi yaqqol rivojlangan. | |
| 2. qorinchalararo devorning chap qorinchaning orqa tavaqasiga nisbatan koeffitsienti > 1,3. | B. restriktivli KMP. |
| 3. chap qorincha razmeri kichik. | V. dilyatatsiyali KMP. |
| 4. chap qorincha qisqarishi regionar buzilgan. | G. GKMP ning obstruktiv shakli. |

14. Quyidagi kasalliklar uchun xos bo'lgan rentgenologik belgilarni aniqlang:

- | | |
|---|--|
| 1. o'pka tasviri «ari» iniga uxshash. | A. o'choqli pnevmoniya. |
| 2. o'pka qismida gomogen dog'lar mavjud. | B. ekssudativ plevrit. |
| 3. o'pka kismida vualsimon dog'lar mavjud. | V. bronxoektatik kasallik. |
| 4. bo'laklararo suyuqlik. | G. o'pka abstsessi. |
| 5. o'pkada ma'lum darajada suyukligi bo'lgan bo'shliq mavjud. | D. krupozli (katta o'choqli) pnevmoniya. |

15. Quyidagi holatlarga xos bo'lgan auskul'tativ belgilarni aniqlang:

- | | |
|---|---|
| 1. arterial gipertenziya. | A. II tonning aktsenti, chapda II kovurg'a oralig'ida. |
| 2. kichik qon aylanishidagi gipertenzialar | B. II tonning aktsenti, o'ngda II qovurg'a oralig'ida. |
| 3. mitral klapani etishmovchiligi va sistolik regurgitatsiya. | V. sistolik shovkin va I tonning yurak cho'qqisida susayishi. |
| 4. GKMP ning obstruktiv shakli. | G. II kovurga oraligida sistolik shovkin II kovurga oraligida ungda. |
| 5. aorta ogzining stenoz turuvchi sistolik shovkin | D. III-IV kovurga oraligida chapda uzgarib turuvchi sistolik shovkin. |

16. Quyidagi kasalliklardagi xos belgilarini aniqlang:

- | | |
|----------------------------------|---|
| 1. NAA | A. A/B ning tezda ko'tarilishi, sinusli taxikardiya, terlash, ozishning kuzatilishi. |
| 2. feoxromotsitoma | B. bradikardiya, qabziyat, uyqusirash, yumshoq AG. |
| 3. birlamchi giperal'dosteronizm | V. biror tomondagi arteriyada pul'sning aniqlanmasligi va AG. |
| 4. tireotoksikoz. | G. turg'un AG, muskullarning kuchsizligi, gipokaliemiya, gipoproteinemiya bilan birgalikda. |
| 5. gipotireoz. | D. sistolik gipertenziya, taxikardiya, ozish, Mebius belgisi musbat. |

17. Quyidagi kasalliklar uchun xarakterli belgilarni aniklang:

- | | |
|------------------------------|---|
| 1. nospetsifik yarali kolit. | A. o'ng yonbosh sohada og'riq, diareya, isitmalash |
| 2. surunkali pankreatit. | B. polifekaliya, muskul tolalari ko'ndalang chizig'i saqlangan holda, steatoreya. |
| 3. Kron kasalligi. | V. diareya, qon aralash, isitmalash, antibiotiklar ta'sirisiz. |
| 4. jigar tsirrozlari. | G. uyquning buzilishi. |

18. Sindromlar uchun xos keluvchi belgilarni ajrating:

- | | |
|---------------------------------|--|
| 1.portal gipertenziya sindromi. | A.astsit, splenomegaliya, qizilo`ngach venalarining varikoz kengayishi. |
| 2.SBE. | B.oyok 1 barmog`ining shishishi va giperemiyasi, qonda siydik kislotasi miqdorining oshishi. |
| 3.uzgaruvchan podagrik artrit. | V.anemiya, paratgormon va kreatininningqonda oshishi. |
| 4.gipersplenizm sindromi | G.anemiya, leykotsitopeniya, trombotsitopeniya, splenomegaliya. |
| 5.jigar sariqlik sindromi. | D.qonda bevosita bilirubin ALT, AST miqdorining oshishi. |
- 19.Quyidagi kasalliklar uchun xos bioximik ko`rsatkichlarni aniqlang:
- | | |
|----------------------------|---|
| 1.Feoxromotsitoma. | A.troponinlar I, AST, MV, KFK. |
| 2.Konn sindromi. | B.adrenalin, noradrenalin, vaninil-bodom kislotasining qonda oshishi. |
| 3.O`tkir miokard infarkti. | V.qonda kaliy miqdori <2,8, gipoproteinemiya AG. |
| 4.Jigar tsirrozlari. | G.qonda va siydikda amilaza miqdorining oshishi. |
| 5.Surunkali pankreatit. | D.AST, ALT, LDG, 4,5 timol sinamasini oshishi. |
- 20.Quyidagi kasalliklarda birgalikda qo`llaniladigan preparatlarni ko`rsating.
- | | |
|--------------------------|--|
| 1.YUrak etishmovchiligi | A.Diuretik+digoksin+APF ingibitori, bettaadrenoblokatorlar |
| 2.Bakterial endokardit | B.Diuretiklar bilan uzoq vaqt davolash, perikardektomiya |
| 3.Konstriktiv perikardit | V. Bakteriotsid antibiotiklar qo`llash (yuqori dozada) |
| 4.Miokardit | G.Nosteroid yallig`lanishga qarshi vositalar,GKS |
- 21.Quyidagi kasalliklarga mos keluvchi belgilarni ajrating:
- | | |
|-----------------------------|---|
| 1.Nospetsifik aortoarteriit | A.purpura,artralgiya,isitma, terining zararlanishi. |
| 2.Tugunchali periarteriit | B.isitma, chakka soxasida giperemiya va chakka arteriyalarini paypaslaganda og`riq,quruv qobiliyatining susayishi. |
| 3.Vegener granulematozi | V.isitma, mushaklarda va bo`g`imlarda og`riq, vazining kamayishi, og`ir kechuvchiAG. |
| 4.Gemorragik vaskulit. | G.yuqori nafas yo`llari, o`pka va buyraklarning zararlanishi. |
| 5.CHakka arteriiti | D.Oyoqlardagi "almashinuvchi cho`loqlik", elka arteriyasining bir yoki ikki tomonda pul`sning susayishi, elka arteriyalarida A/B ning turli nisbatdaligi. |
- 22.Qon aylanish etishmovchiligiga sabab bo`lgan quyidagi kasalliklarning patofiziologik mexanizmini tanlang:
- | | |
|--|---------------------------------|
| 1.Birlamchi miokardial etishmovchilik | A.miokard infarkti |
| 2.Bosim zo`riqishi ortishi | B.dilatatsion kardiomiopatiya |
| 3.Zarb xajmining ortishi | V.Aortal stenoz |
| 4.CHap qorinchaning diastolik to`lishi | G.mitral klapan etishmovchiligi |
| 5.Ikkilamchi miokardial etishmovchilik | D.konstriktiv perikardit |

23. Quyidagi kasalliklar uchun A/B ning oshishidan yana qanday belgilar xos?

- | | |
|------------------------------|---|
| 1. Surunkali pielonefrit | A. yurak o'ynog'i, xurujlari, terlash, titrash, A/B ning oshishi. |
| 2. Surunkali glomerulonefrit | B. "oysimon yuz", semirish. |
| 3. Tireotoksikoz | V. Ekzooftal'm, oriqlab ketish, taxikardiya. |
| 4. Feoxromotsitoma | G. leykotsituriya, et uvishishi, bel sohasida og'riq.. |
| 5. Itseng – Kushing sindromi | D. Proteinuriya, eritrotsituriya, tsilindruriya. |

24. Quyidagi kasalliklarga mos keluvchi klinik belgilarni tanlang.

- | | |
|------------------------------------|---|
| 1. Revmatoidli arterit | A. ertalabki "bo'g'imlardagi karaxtlik" |
| 2. Sistemali qizil yugurdak | B. Allopetsiya |
| 3. Reyter kasalligi | V. Axillov paypaslaganda og'riq |
| 4. Sistemali sklerodermiya | G. Geberden tugunlari |
| 5. Deformatsiyalanuvchi osteortroz | D. CREST sindrom |

25. Quyidagi kasalliklarga xos bo'lgan belgini ko'rsating:

- | | |
|-----------------------------|--|
| 1. Sistemali sklerodermiya | A. Ko'plab mono nevrit |
| 2. Dermatomiozit | B. Reyno sindromi |
| 3. Tugunchali periarteriit | V. Paraorbital shish |
| 4. Sistemali qizil yugurdak | G. Rentgenogrammada ko'plab "naqsh" lar (uzurlar)ning kaft bo'g'imlarida topilishi |
| 5. Revmatoidli artrit | D. yuzdagi eritema |

26. Quyidagi sindromlarga mos keluvchi belgilarni tanlang:

- | | |
|--------------------------------------|--|
| 1. Portal gipertenziya | A. ishkoriy fofatazaning oshishi |
| 2. Xolestatik sindrom | B. astsit, talokning kattalashishi |
| 3. TSitolitik sindrom | V. Gammaglyutamin transpeptidaza, LDG, ALT |
| 4. Mezenximal-yallig'lanish sindromi | G. al'bumin, protrombin indeksi, fibronogen, xolinesterazaning kamayishi |
| 5. Jigar – hujayra etishmovchiligi | D. ECHT, grammaglobulin, timol sinmasining oshishi. |

27. Quyidagi asoratlarda birgalikda qo'llaniladigan preparatlarni ko'rsating:

- | | |
|-----------------------|--|
| 1. Anafilaktik shok. | A. morfin, geparin, reopolyuglyukin, dopamin |
| 2. Dressler sindromi. | B. GKS, adrenalin, glyukagon, dimedrol, tsimetidin, eufillin |
| 3. Kardiogen shok. | V. prednizolon, indometatsii |
| 4. O'pka shishi. | G. Diuretiklar, nitroglitserin, natriy nitroprussid |

28. Quyidagi ritmi buzilishlarining EKG mezonlarini sanang:

- | | |
|--|--|
| 1. Frederik sindromi | A. EKG ammada F tishchaning mavjudligi |
| 2. Bulmachalar titrog'i | B. F to'lqinlarning mavjudligi to'g'ri qorinchalar ritmi, YUKS 45 ta 1 min QRS = 0.15 sek. |
| 3. WPW sindromi | V. PQ = 0,18 sek, del'ta tishining R tishining ko'tariluvchi qismida bo'lishi (I V6 tarmoqlarda) QRS |
| 4. Supraventrikulyar ritm migratsiyasi | G. PQ intervalining sekinlik bilan qisqarishi va I tarmoqlarda –R ning hosil bo'lishi. |

Vaziyatli masalalar

1-masala

18 yoshli bemor harbiy komissariat tomonidan yuborilgan. Normal o'sib ulg'aygan. Auskul'tatsiyada to'sh suyagidan chap tomonda 4 – qovurg'alararo sohada juda qattiq sistolik shovqin eshitilmoqda. (bu shovkin yoshlikdan mavjud). Ko'krak qafasi rentgenoskopiyasida - chap qorincha ozroq kattalashgan.

A.Sizning taxminiy tashxisingiz?

B.YAkuniy tashxisni qaysi tekshirish usuli tasdiqlaydi?

2-masala

47 yoshli bemorda 15 yildan buyon kompensatsiyalangan revmatizm etiologiyali mitroaortal nuqson mavjud. Bir oy oldin tonzillektomiyadan so'ng harorati 37.2-37.8 S gacha terlash, artralgiya, bo'shashish va hansirash bezovta qila boshladi. Taloq paypaslanmokda.

A.Sizning taxminiy tashxisingiz?

B.YUrak UTT da qanday natijani kutmoqdasiz?

V.Davolashni tavsiya eting.

3-masala

55 yoshli bemor ozroq jismoniy zo'riqishdan so'ng hansirash, o'ng qovurg'a tagida og'riq va diurezning kamayishiga shikoyat qilmoqda.

Ob'ektiv: bo'yin venalari bo'rtgan. AB 100/60 mm.sim.ust , pul'si 100 marta 1 minutda, auskul'tatsiyada yurak cho'qqisida dag'al sistolik shovqin, u bo'yinga tarqalmokda, jigar 7 sm gacha kattalashgan, oyoqlarda shish.

Quyida keltirilgan qaysi tushuncha noto'g'ri?

A.Bemorda total yurak etishmovchiligi mavjud.

B.Diuretiklarni qabul qilish hansirashni kamaytiradi.

V.Kaptopirilning kichik dozasini qo'llash kerak.

G.Aorta og'zi stenozi belgilari mavjud.

4-masala

50 yoshli vazni haddan ziyod bemorda tunda I plyus falang bo'g'imida kuchli og'riq va shish paydo bo'lib, tana harorati ko'tarildi. Tashxisni aniqlash uchun shifokor tekshirish usullarini tavsiya etdi.

Bemorda ko'proq quyidagilardan qaysi biri aniqlanishi mumkin?

A.Gemolitik anemiya

B.Ishqoriy fosfataza oshadi.

V.Siydik kislotasi miqdori oshadi.

G.Revmatoid omil aniqlanadi.

D.Qon zardobida kaliy miqdori

SHoshilinch tadbirlarni tavsiya eting.

5-masala

40 yoshli bemor ko'p vaqtdan buyon isitmaning tushmayotganligidan (antibiotikoterapiyaga karamay) va og'ir kechayotgan arterial gipertoniya, polineyropatiyadan azoblanmoqda ,bir oy ichida 10 kg. ga ozdi.

A.Sizning tashxisingiz?.

B.Tashxisni tasdiqlovchi tekshirishlarni sanang.

6-masala

38 yoshli arman bemorda o'smirlik paytidan buyon har zamonda qorinda og'ri paydo bo'lib, tana harorati oshadi. Og'riqlar bir sutkadan so'ng o'z-o'zidan o'tib ketadi. Oxirgi yilda siydik tahlilida proteinuriya 3,3 g/l gacha aniqlandi. Bemorning otasi buyrak kasalligidan vafot etgan.

1.Sizning taxminiy tashxisingiz?.

A.Surunkali glomerulonefrit

B.Amiloidoz rivojlanishi bilan kechuvchi davriy kasallik

V.Nim o'tkir glomerulonefrit

G.Surunkali pielonefrit

2.Davolash.

7-masala

Quyida keltirilgan qaysi tushuncha o'tkir miokard infarktini davolashda noto'g'ri?

A.V-adrenoblokatorlarni qo'llash kasallik oqibatini yaxshilaydi.

B.Antiagregantlarni profilaktika maqsadida tavsiya etish tromboembolik asoratlarni kamaytiradi.

V.CHap qorincha etishmovchiligi belgilari rivojlansa, yurak glikozidlari tavsiya etiladi.

G.Qorinchalar ekstrasistoliyasida lidokain qo'llaniladi.

8-masala

72 yoshli bemor yurak ishemik kasalligi, postinfarktlı kardioskleroz, mertsal aritmiya bilan og'riydi. Oxirgi paytda hansirash kuchayib, yo'tal va qon tuflash paydo bo'ldi. Rentgenologik tekshiruvda chap o'pka pastki bo'lagining nogomogen qorayishi aniqlandi.

A.Sizning tashxisingiz?

B.Qaysi tekshirish usuli bu holda ko'proq ahamiyatli hisoblanadi?

9-masala

20 yoshli bemor tekshirish uchun harbiy komissariat tomonidan yuborildi. Nimjon o'sgan - tez-tez nafas yo'llari infeksiyasi bezovta qilgan. Yurak asosida dag'al uzluksiz sistolik-diastolik shovqin eshitilmoqda. AB 150/40 mm.sim.ust. Rentgenda aorta va o'pka arteriyasi pul'satsiyasi kuchaygan, chap qorincha kattalashgan, o'pka arteriyasi kengaygan.

Sizning tashxisingiz?

10-masala

62 yoshli bemorda 5 yil oldin gipofiz o'smasi olib tashlangan. YArım yil oldin proteinuriya – 0.9g/l, aniqlandi. So'ngra yuzda va oyoqlarda shishlar paydo bo'lib, ular kuchaya bordi. Kasalxonaga yotqizilganda sutkalik proteinuriya – 6g gacha, umumiy oqsil – 50mmol/l, xolesterin – 8mmol/l gacha ekanligi aniqlandi.

Qaysi tushuncha noto'g'ri?

A.Bemorda nefrotik sindrom

B.Bemorda o'tkir glomerulonefrit

V.Onkologik kasalliklarni aniqlash uchun bemorni qo'shimcha tekshirish kerak

G.Davolashni zudlik bilan prednizolon va tsiklofosfandan boshlash kerak,

11-masala

Bemor 21 yoshda, 8 yoshida qizilcha bilan og'rigan, 10 yoshidan boshlab siydik tahlilida o'zgarish aniqlanadi. So'nggi 2 yildan buyon bo'shashish, ko'ngil aynish bezovta qilib, sezilarli ravishda vaznini yo'qotgan, gemoglobin 80 g/l, kreatinin konda 0,5 mmol'/l

A.Sizning tashxisingiz?

B Tekshirish rejangiz?

12-masala

16 yoshli bemor kiz, shikoyatlari: isitma, bo'g'imlarida og'riq, yuzda eritematoz toshmalar. Nefrotik sindrom mavjud. Siydik tahlilida oqsil 3,3 promil, leykotsit 20-30/1, o'zgargan eritrotsitlar 30-40/1, gialinli tsilindrlar 5-6/1, donador 4-1/1, ECHT – 60 mm/s.

Sizning tashxisingiz?

Davolash.

13-masala

F ismli bemor ayol 37 yoshda, kasalxonaga gipertonik kriz, o'pka shishi bilan asoratlangan holatda olib kelingan. A/B 220/140 mm sim.ust. 7 yildan buyon A/B 150/90, 180/120 mm sim.ust. ga teng holda oshib turadi, sababi noma'lum, (bemorga ekskretor urografiya qilingan, normal natijani bergan). Gipertonik krizni pentamin, laziks bilan, vena ichiga klofelin, droperidollarni qo'llash bilan ham bartaraf etishning imkoni bo'lmadi.

Sizning tashxisingiz?
Davolash usuli.

14-masala

V, ismli 60 yoshli bemorda to'liq kundalang qamal, yurak qisqarishlari soni 32-46 martagacha, A/B 220/100 mm sim.ust.ga oshib gipertonik krizlar bezovta qiladi.
Davolashni tavsiya eting.

15-masala

M, ismli bemor 32 yoshda, kuchayib boruvchi mushaklarda bo'shashish va umumiy, kuchayuvchi charchash paydo buldi, A/B barqaror 180/100, 190/120 mm.sim.ust.da, siydigi ishqoriy muhitli, ossil – 0,66%, solishtirma zichligi –1020, gipertonik retinopatiya aniqlangan. Rezerpin, gemiton, dopegit, anaprilindan samaradorlik yo`q
Sizning tashxisingiz?
Davolashni tavsiya eting.

16-masala

T, ismli 50 yoshli bemor, kasalxonaga «gipertonik kriz» tashxisii bilan olib kelindi, shikoyatlari kuchli bosh og`rig`i, qusish, ayniqsa, yuqoridagilar boshni burganda va gavda holatini o`zgartirganda kuchayadi. A/B 170/100 mm sim.ust., to'satdan kunning ikkinchi yarmida utkir ravishda og`rib qoldi. Oldinlari A/B oshmagan.
Sizning tashxisingiz?
Davolashni tavsiya eting.

17-masala

K, ismli 18 yoshli bemorda, tibbiy kurikda A/B ning 170/100 mm sim.ust.ga tengligi aniqlanib, terapevtik kasalxonaga yotqizildi, bu erda aorta ustida sistolik shovqin aniklanib, «revmatik etiologiyali nuqson va neyrotsirkulyator distoniya» tashxislari qo`yildi.
Sizning tashxisingiz va tekshirish rejangiz?
Davolashni tavsiya eting.

18-masala

F, ismli 46 yoshli bemor 1 oy oldin yirik o`choqli miokard infarktini o`tkazgan. Kecha kechqurun to`sh orqasida kuchli og`riq paydo bo`lib, u ko`krak qafasining old tomonini egallab oldi, so`ngra et uvishish va haroratning 38,6 gradusgacha ko'tarilishi yuzaga keldi, ertalab kasalxonaning qabul bo`limiga keltirildi.
EKG da: o`tkazilgan miokard infarkti belgilari.
Sizning tashxisingiz?
Davolashni tavsiya eting.

19-masala

X, ismli 62 yoshli bemor kasalxonada «nostabil stenokardiya» diagnozi tufayli davolanmokda. Navbatdagi chuzilgan tush orkasidagi ogriklardan sung upka shishi rivojlandi, bu xolatdan vena ichiga morfin va laziks yuborish bilan olib chiqildi. Ushbu xurujdan so`ng yurak cho`qqisidagi dagal sistolik shovqin va uning chap qo`ltiq ostiga berilishi aniqlandi, tinch holatda ham hansirash yuzaga keldi.
EKG da: sinusli taxikardiya, Giss tutami chap oyoqchasi to'liq qamali, miokardda diffuz uzgarish.
Sizning tashxisingiz?
Tekshirish rejasi va davolashni tavsiya eting.

20-masala

Z, ismli bemor, 48 yoshda, poliklinikaga yurak sohasida bosuvchi og`riqlar tufayli murojat kilib keldi. Og`riqlar yurganda va tinch holatda paydo bo`lib, nitroglitserindan samaradorlik kam, oxirgi yilda arterial bosimning 160/90 mm sim.ust.dan oshmaganligi kuzatildi. Ob'ektiv: tush suyagidan chap tomonda III-

IV qovurg`alararo sohada barqaror bo`lmagan sistolik shovqin eshitilmoqda rentgenda yurak konfiguratsiyasi (shakli) o`zgarmagan.

EKG: chap qorincha gipertrofiya belgilari.

Sizning taxminiy tashxisingiz?

Tekshirish rejasi va davolash rejasini tuzing.

21-masala

Bemor S, 52 yoshda, qabul bo`limiga” bartaraf kilinmagan stenokardiya xuruji” tashxisi bilan keltirildi. Yurak sohasidagi og`riqlar 3 soat oldin paydo bo`lib, validol va Votchal tomchisi bilan bartaraf etilmadi. Anamnezidan: ba`zida A/B 180/100 mm sim.ust.gacha oshadi, ob`ektiv: pul’si ritmik 100 marta 1 minutda, A/B 220/120 mm sim.ust.da, aortada II ton aktsenti, o`pkada vezikulyar nafas.

EKG: Sinusli taxikardiya.

Sizning tashxisingiz?

Davolashni tavsiya eting.

22-masala

Bemor S, 58 yoshda, transmural miokard infarkti bilan og`rigan, 2-kuni aritmiya paydo bo`lib, u hansirash va bosh aylanishi bilan kechmoqda. Ob`ektiv: kam ifodalangan lablarda tsianoz, yurakning nsibiy chegaralari chapga 2 smga kengaygan, yurak tonlari bo`g`iq, aritmik, o`pkaning orka-pastki bo`laklarida dag`al nafas asosida kam mikdorda nam xirillashlar eshitilmokda, A/B 120/80 mm sim.ust.da.

EKG: ritm sinusli, navbatdan tashqari, tez-tez keluvchi, deformatsiyalangan, davomiyligi 0,12 sekund bulgan QRS kompleksi paydo bo`ldi. R tishcha yo`q.

Bemorda qanday asorat yuzaga keldi?

Davolashni tavsiya eting.

23-masala

Bemor F, 58 yoshda revmatik etiologiyali chap atrioventrikulyar teshik stenozi bilan og`riydi, kasalxonaga yurak o`ynog`i (3 sutka davom etib, kuchayib boruvchi hansirash bilan kechgan) xuruji bilan yotqizilgan. Ob`ektiv: ortopnoe xolati, lablarda tsianoz va akrotsianoz, to`piq va boldirlarda shishga moyilligi, auskul`tatsiyada – chap atrioventrikulyar teshik stenoziga xos belgilar, yurak tonlari aritmik, nafas olish soni minutiga 26 marta, o`pkaning orka-pastki bo`laklarida dag`al nafas asosida nam xirillashlar, paypaslaganda jigar qirralari og`riqli ekanligi aniqlanadi.

EKG: R tishcha yo`q, R-R oralig`i har xil.

Sizning tashxisingiz?

Davolashni tavsiya eting.

24-masala

Bemor T, 32 yoshda, oxirgi yillarda oriqlab ketish, terlashni sezmokda, yaqinda ko`p soatlik kuchli yurak o`ynog`i xuruji paydo bo`lib, bu holat EKG da qayd etildi. Ob`ektiv: dimlangan yurak etishmovchiligi belgilari yo`q. A/B 90/60 mm sim.ust.

EKG: Bo`lmachalar titrog`i.

Sizning tashxisingiz?

Davolashni tavsiya eting.

25-masala

Bemor K, 53 yoshda, intensiv terapiya bo`limiga «o`tkir miokard infarkti va o`pka shishi» belgilari bilan keltirildi. A/B 90/50 mm sim.ust.

EKG: Paroksizmal qorinchalar taxikardiyasi.

Sizning tashxisingiz?

Davolashni tavsiya eting.

26-masala

Bemor Z, 72 yoshda, miokard infarktini o'tkazgan, to'liq ko'ndalang qamal bilan og'riydi, EKS implantatsiya kilingan. Magazinda kuchli hushdan ketish va qaltiroq (titroq) sindromi paydo bo'ldi, pul'si minutiga 38 marta, A/B 200/70 mm sim.ust.

Sizning tashxisingiz?

Davolash usulingiz.

27-masala

Bemor K.52 yoshda, balg'amli yo'talga, nafas chiqarishning qiyinligiga, harsillash va qorinning kattalashishiga shikoyat qilmoqda. Oyoqlarida shish mavjud. Uzoq yillar davomida "obstruktiv bronxit" bilan kasallangan.

1.Bemorda qanday asorat rivojlandi?

2.Davolashni tavsiya eting.

28-masala

Bemor 28 yoshda, bir oylik xizmat safari davomida jinsiy aloqada bo'lgan va og'rib qolgan.Kasallik o'tkir boshlanib, ba'zan qaltirash va haroratning ortishi kuzatilgan. Ikki oy o'tgach, boldir-tovon bo'g'imida shish, og'riq paydo bo'lgan.

1.Tashxis?

2.Davolash?

29-masala

40yoshli bemor, uzoq vaktdan buyon bronxoektatik kasallik bilan og'rib yurgan, bemorda keyingi paytda diurez kamayishi, oyoqlarda, bel sohasida va yuzida shish paydo bo'ldi.

Ob'ektiv: teri koplamlari rangpar, butun tanasida shishlar. A/B 120/70 mm sim ust.Umumiy siydik tahlilida: oksil 6,6 g/l, mikrogematuriya, tsilindruriya.

Umumiy kon taxlili: gemoglobin 90 g/l, leykotsit-8000, ECHT 45 mm/s, xolesterin 7,5 mmol'/l, mochevina 6,5 mmol'/l, kreatinin 0,12 mmol'/l.

1.Bemorda kanday asorat yuzaga kelgan?

2.Tashxisni tasdiqlovchi qo'shimcha tekshiruv usullarini ayting.

3.Klinik tashxis qo'ying.

4. Davolashni tavsiya eting.

30-masala

42 yoshli bemor qandli diabetning I tipi bilan 15 yildan buyon og'riydi. Xar kuni 60 b insulin oladi. 2 yildan buyon A/B oshishi kuzatiladi: 180/100 mm sim ust gacha. 6 oy oldin oyoqlarda shish paydo bo'ldi, shishlar butun tanasiga tarqala boshladi, hansirash, og'iz qurishi, ko'ngil aynishi paydo bo'ldi, diurez keskin kamaydi.

Tekshiruvda: umumiy siydik tahlilida oksil 9,9 g/l.

Kon tahlilida: umumiy oqsil 50 g/l, xolesterin 10 mmol'/l,

Koptokchalar fil'tratsiyasi 35 ml/min. Mochevina 12 mmol'/l, kreatinin 0,3 mmol'/l.

1. Bemorda kanday asorat yuzaga kelgan?

2.Klinik tashxis kuying

3. Davolash.

31-masala.

20 yoshli o'spirin sovuqda kolgandan so'ng: yuzida, qo'l-oyoqlarida shish paydo bo'lganligini, umumiy holsizlik va diurez kamayganligini ta'kidladi. YAshash joyida statsionar davolangan, samarasi bo'lmagach, 2 oydan sung nefrologiya bo'limiga yotqizilgan.

Ob'ektiv: teri qatlamlari rangpar, quruq. YUzida va qo'l, oyoqlarida shish, astsit aniqlanadi. O'pka perkussiyasida kurak qirrasidan pastda perkutor tovush bugiq, auskul'tatsiyada shu sohada nafas keskin susaygan. YUrak tonlari bo'g'iq ritmik. A/B 90/60 mm sim ust. Sutkalik proteinuriya 6,0 g/l.

1.Dastlabki tashxisni qo'ying.

- 2.Qanday qo`shimcha tekshiruv usuli kerak?
3. Parhez va patogenetik davoni tavsiya kiling .

32-masala

35 yoshli bemor qo`l barmoqlari uvishishi va muzlashiga, qo`l -oyoq bo`g`imlarida ogrik, ovkat yutish buzilganligi, og`iz atrofida tortishish hissi, quruq yutalga shikoyat kiladi. O`zini 2 yildan buyon kasal deb hisoblaydi: kasallik bo`g`imlarda og`riq, qo`l uvishishi va muzlashishidan boshlangan. 1 yil oldin yuz terisida o`zgarish va ovqat yutish buzilishi paydo bulgan.

Ob`ektiv: yuzi «niqobsimon», «choksimon» belgi, oyoq qo`llarda zich shish, yurak tonlari bugik, A/B 150/100 mm sim ust. O`pkada vezikulyar nafas, orka pastki sohalarida nafas susaygan.

Umumiy kon analizida: anemiya, ECHT oshgan.

Rentgenografiyada: bazal pnevmoskleroz aniklanadi.

- 1.Kanday 2 ta tekshiruv tashxis kuyishga imkon beradi?
2. Klinik diagnoz kuying.
- 3.Kanday preparatlar fibroz avj olishini to`xtatadi?

33-masala

1 kurs talaba kiz, kuzda qishloq xo`jalik ishlarida qatnashgach, yuzida kizil toshmalar toshganligini aniqladi. So`ngra tana temperaturasi 38 S gacha oshganligi, tizza bugimlarida shish, yurak soxasida ogrik, yuz va oyoqlarida ertalablari shish bo`lishini ta`kidladi.

Ob`ektiv: yuzida «kapalak» simon eritema, tizza bugimlari shishgan, pul'si 100 ta, yurak cho`qqida sistolik shovqin.

1. Umumiy qon va siydik tahlillarida kanday o`zgarishlarni aniqlash mumkin?
2. Qo`shimcha tekshiruv usullari?
3. Klinik diagnoz qo`ying.
- 4.Patogenetik davoni taviya eting.

34-masala

25 yoshli bemor plyajda kup bo`lgandan so`ng,yuzida eritematoz toshma, qo`l-oyok bo`g`imlarida ogriq sezdi. 1 xaftadan sung yurak soxasida ogrik va hansirash paydo bo`ldi.

Ob`ektiv: umumiy axvoli o`rtacha ogirlikda. Tana xarorati 38 S, yuzida «kapalak» simon eritema, Pul'si 100 ta, yurak chukkisida sistolik shovkin.

UKT: anemiya, leykopeniya ECHT40mm/s. Antikuklear omil titri yukori.

1. Qo`shimcha tekshiruv usullari?
2. Dastlabki tashxis.
3. Qaysi kasalliklar bilan qiyoslash lozim?
4. Davolash.

35-masala

60 yoshli bemor ayol kul-oyok muskullarda ogrik va kuvvatsizlikka, tana xaroratini oshishiga, artralgiyaga shikoyat kildi. Ko`rik mahali: muskullarda qattiq ogrik, yuz va bo`yin sohalarida eritematoz o`zgarishlar, paraorbital shish aniklandi. Bemor qo`lini va oyogini ko`tara olmaydi.

1. Dastlabki tashxis.
2. Tashxisni tasdiklovchi tekshiruv usullari.
3. Davolash.

36-masala

YOsh ayolni bo`g`imlarda og`rik, diurez kamayishi,tanasida shish, xansirash,quruq yo`tal,tana haroratining ko`tarilishiga bezovta kiladi.

UPT: oksil – 6,6 g/l, erit – 3- 5, donador tsilindr – 1-2 ta.

1. Dastlabki tashxis?
2. Qo`shimcha tekshiruvlar?
3. Davolash.

37-masala

45 yoshli erkak, kasbi oshpaz, 1kaft-falanga bugimi, tizza, qo'lining proksimal va distal falangalararo bugimlarida og'riqqa shikoyat kildi. Og'riq o'tkir boshlandi. Ko'prok tunda alkagol yoki ko'p go'sht egandan so'ng uzini 5oydan buyon kasal xisoblaydi. 3 yil oldin kuchli og'rikdan sung siydikda mayda toshchalar aniklangan. Onasini xam xudi shu bo'g'imlar og'rishi bezovta qilgan.

1. To'g'ri tashxis kuying.
2. Taxminiy tashxis?
3. Tashxisni tasdiklash uchun kanday tekshiruv kilish kerak ?
4. Davolash taktikasi?

38-masala

22 yoshli talabani tizza bo'g'imlari, chap boldir-tovon bo'g'imi, oyoqning katta barmoklar bo'g'imlarida, chap dumba soxasida og'riq, ko'z achishishi, namlanishi bezovta kiladi. Siyganda kuchsiz achishish bor. 2 oydan buyon kasal. Jinsiy aloqalari tartibsiz. Ko'rikda ichki azolar tomondan uzgarishlar yuk. Tana xarorati 37,7S. CHap axil boylam tovoniga birikish sohasida shish bor. Okulist «konyuktivit» tashxisini qo'yg'an.

UKT: leykotsitoz, ECHT – 54 mm/s. Uretradan surtmada gokokok aniqlanmadi

1. Kaysi tekshiruv eng qimmatli ma'lumot beradi?.
2. Tashxisni qo'ying.
3. Davolash rejasini tuzing.

39-masala

33 li erkak, umurtka pogonasining bo'yin-ko'krak va bel sohasida kotib kolish, yonboshlaganda kechasi og'riqlarning kuchayishiga shikoyat kilmokda. Bemor o'zini 5 yildan beri kasal xisoblaydi. Doimo indometatsin kabul kilib yuradi.

Ob'ektiv: bo'yin umurtkasi kifoz, “sadaqa so'rash holatida, paravertebral mushaklari tarang. Periferik bo'g'imlar o'zgarmagan. Qon taxlilida ECHT – 38 mm/s.

1. Tashxisni kuyish uchun kaysi tekshiruv usulini o'tkazish kerak ?
2. Ushbu tekshiruvdan siz kanday natija kutmokdasiz?
3. Klinik tashxis kuying.
4. Davolashni belgilang.

40-masala

Bemor 38 yosh. Ko'p marotaba shilliq, yiringli, kon aralash ich ketishiga, hojatga ehtiyoj sezishiga, korinda og'riq, ozib ketish, tana xaroratining 38 S. ga kutarilishiga shikoyat qilmokda. Bemor 1 yildan beri kasal. Tili malina rangida, yoriklar bor. Korniyumshok, yo'g'on ichak bo'ylab og'rikli. Jigar paypaslanmaydi, shishlar yuk. Rektoramonoskopiyada ichak devorlari infil'tratsiyalangan, qontalash, shilliq-yiringli yaralar bor.

1. Taxminiy tashxis kuying.
2. Qaysi kasallik bilan farqlash lozim?
3. Mazkur kasallikda qo'llaniladigan bazis preparatlarni ayting.

41-masala

Bemor 45 yoshda. Kornining yukori kismida “belbog'simon” og'riqqa, betinim kayt kilish, bekaror ich kelishiga shikoyat kilmokda. Anamnezida bemor o'n yildan beri surunkali xoletsistit va o't-tosh kasalligi bilan og'riydi.

Ob'ektiv: ishtaxasi kam, tili kuruk, ok karash bilan koplangan. Pal'patsiyada epigastral va ung kovurga ostida og'riklar aniklanadi. Frenikus belgisi chapda musbat. Konda amilaza oshgan. Axlatda kreatoreya va steatoreya.

1. Taxminiy tashxisni asoslang.
2. Kaysi kasalliklar bilan farqlash lozim?
3. Davo tavsiya eting.

42-masala

Bemor 45 yosh., engil jismoniy zo`riqishda xansirash, yurak urib ketishi, oyoklarda shishlarga shikoyat kilmokda. 4 yildan beri kasal, anamnezida revmatizm va YUIK o`tkazmagan. Axvoli og`irlashib, shishlar ko`paymokda.

Ob`ektiv: umumiy axvoli o`rtacha ogirlikda, oyoklarda massiv shishlar, o`pkaning pastki sohalarida vezikulyar nafas susaygan, yurak chegaralari hamma tomonga kengaygan, tonlar keskin bo`g`iqlashgan, cho`qqida sistolik shovkin, mertsal aritmiya. YUKS – 105 ta/min, pul`s aritmik, 96 ta/min, pul`s nomutanosibligi 9 taga. EKGda: mertsatel aritmiya, YUQS 110-90 ta, ikala korincha gipertrofiyasi zo`riqish bilan vol`taji pasaygan.

1. Bemorni tekshiruv rejasini tuzing.
2. Tashxis kuyish uchun tekshiruvlardagi kaysi natija muxim?
3. Tashxis kuying.
4. Davo tavsiya eting.

43-masala

Bemor 48 yosh, bosh ogrig`iga, mushaklarning kuchsizligiga, diurezning kupayishi, kovoklarning salkishi, kul barmoklarida paresteziya va jonsizlanishga shikoyat qilmoqda.

Ob`ektiv: yurak tonlari buo`g`iq, ekstrasistoliya. AKB 170/100 mm. sim. ust. Konda kaliy mikdori 2,6 mmol/ l gacha pasaygan. Plazmada renin mikdori xam pasaygan, veroshperon bilan davolanish yaxshi samara bermokda.

Elektrolitlar tekshiruvidagi natijalar va buyrak tomondan kilingan tekshiruvlar qanday patologiyani beradi?

1. Klinik tashxis kuying.
2. Davo tavsiya eting.

44-masala

Bemor K, 52 yosh. Balg`amli yo`tal, nafas chikarishning kiyinlashuvi, xansirash, qorinning kattalashishi, oyoklarda shishga shikoyat kilmokda. Bir necha yildan beri “surunkali bronxit” bilan ogriydi. Bir necha marta statsionar davolangan. SHishlar bir yil avval paydo bo`lib, ko`payib bormokda. Ob`ektiv: ahvoli og`ir, tinch xolatda xam hansirash. NOS 28 ta/min. YUz va oyok-qo`llarda diffuz tsianoz. Akrotsianoz, oyoklarda shishlar, pul`si 100 ta. AKB 110/70 mm. sim.ust., yurak o`ngga kengaygan, epigastral pul`satsiya anik. Upkada pastki soxalarda susaygan vezikulyar nafas, taqkoq kuruk xirillashlar eshitiladi. Jigar +3 sm kattalashgan.

1. Bemorda kanday asorat yuzaga kelgan?
2. EKG da kanday ma`lumotlar kutyapsiz?
3. Davolash rejasi.

45-masala

Og`ir ish kunining oxirida 35 yoshli ayolda ahvoli yomonlashuvi, kuchli bosh og`riq, bosh aylanish, kungil aynish, yurak urib ketishi, tez-tez kup siyish kuzatildi. Ayol salomatlik punktidagi feldsherga murojaat kildi.

Ob`ektiv: bemor xayajonli, teri koplami nam, giperemik, YUrak tonlari baland, ritmik, aortada II – ton aktsenti, pul`s 100 ta/min. ritmik. Xuruj paytida qon tahlilida glyukoza mikdori aniklangan.

1. Taxminiy tashxis?
2. Tashxisni tasdiklash uchun kanday kushimcha tekshiruv usullari kilish lozim?
3. Xurujni bartaraf kilish va keyingi davo taktikangiz.

46-masala

30 yoshli ayolning shikoyatlari: holsizlik, chap ko`zining ko`rishining pasayishi, katta bo`g`imlarda uchuvchan og`riklar, chap qo`lda diskomfort va kuchsizlik.

Ob`ektiv: pul`s asimmetrik, AKB (ungda 180/100, chapda 160/94 mm.s.u.). Korin aortasi ustida sistolik shovkin eshitiladi. Haroratning davriy kutarilishi 37,5-38,0 S. UQT: anemiya, ECHT tezlashgan.

YAllig`lanishni ko`rsatuvchi cho`kma sinamalar oshgan.

1. Tashxisni tasdiklash uchun kanday kushimcha tekshiruv usullari kilish lozim?
2. Taxminiy tashxisni asoslang.

3. Davo taktikasi.

47-masala

Bemor V 20 yoshda, kasalxonaga keltirildi. 10 yildan beri AKB ko'tarilib kelgan. SHu bilan birga oyoklarda, qo'llarda, yuzda shish va bosh og'riqlar kuzatiladi. Bir necha marta nefrologik bo'limlarda davolangan. Ushbu qo'zishi bir hafta oldin shamollashdan sung qo'zg'algan..

Ob'ektiv: axvoli ogir, ogzidan mochevina hidi keladi, nafas olish shovkinli. NOS 30 ta/min, karaxt, savollarga zo'rga javob beradi. Terisi quruq, tiralgan, tirnoq izlari bor. AKB 220/120 mm.s.u. 180/110bo'lmokda. UPT: oksil – 0,33-1,165 %, gematuriya, tsilindrlar – 1-2, Konda mochevina – 28 mmol/l, kreatinin – 0,7 mol/l.

1. Reberg sinamasi va buyrak UTTsida qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkin?
2. Klinik tashxis kuying.
3. Davo tavsiya eting.

48-masala

58 yoshli bemor ko'p yillardan buyon spirtli ichimliklar kabul kiladi.U umumiy holsizlik va ishtaxa pasayishi, oxirgi 3 yilda peshobning kamayishi va korin kattalashishiga shikoyat kildi. O'ng qovurg'a ostida og'irlik xissi. Bir necha bora burnidan kon ketgan.

Ob'ektiv: umumiy axvoli ogir, kornida astsit, venoz kollaterallari kengaygan, “yulduzchasimon tomirlar” ko'rinadi. Taloq kindik soxasida, UKT: anemiya, leykopeniya, trombositopeniya. Bioximik taxlillarda-giperbilirubinemiya, AST, ALT – oshgan.

1. Taxminiy tashxis
2. YAna kanday kushimcha tekshiruv usullari kilish lozim?
3. Davo rejasi.

49-masala

Bemor 32 yoshda. 2 yil oldin VG bilan ogrigan. YUkumli kasalliklar shifoxonasida 63 kun davolangan. Sung 1 yil parxez kilgan va ambulator davolangan. Bir necha bor bilirubin va fermentlar kutarilishi kuzatilgan.

Ob'ektiv: umumiy axvoli o'rtacha ogirlikda, terisi va sklerasi sargaygan, qichishishlar bor. Tana xarorati 38 gacha ko'tariladi. Jigar +5-6 sm. Kattiklashgan, ogrikli, tugunchalar mavjud. Talok 1-2 sm kattalashgan, kattik. UKT: Hb, eritrotsit, leykotsitlar kamaygan, bilirubin va fermentlardan ALT, AST, LDG oshgan.

1. Tashxisni tasdiklash uchun kanday kushimcha tekshiruv usullari kilish lozim?
2. Taxminiy tashxis.
3. Davolashdagi tavsiyangiz.

50-masala

38 yoshli bemor 2 oy oldin tishini oldirgan. Oxirgi 3 oyda tana xaroratining oshishi, qaltirash, yurak sohasida ogriq, nafas qisishga va yurak urib ketishiga shikoyat kilmokda. YUzlari okargan, oyok-kullarda mayda nuqtali toshmalar bor, yurak chegarasi chapga siljigan. AB - 110/70 mm.sim.ust. Pul's – 92 ta/min. Botkin nuktasida diastolik shovkin eshitiladi, jigar +2 sm ga kattalashgan. Son arteriyasi Traube shovqini aniqlanmoqda. UKT – anemiya, leykotsitoz, ECHT tezlashgan.Fibrinogen - 6 mmol'/l EKG- chap korincha gipertrofiyasi belgilari.

- 1.Taxminiy tashxis?
- 2.Tashxisni tasdiklash uchun kanday kushimcha tekshiruv usullari kilish lozim?
- 3.Davolash rejasi.

51-masala

Bemor X. 36 yosh. SHikoyatlari: to'satdan boshlanuvchi yurak urib ketishi xuruji, nafas etishmovchiligi hissi, umumiy holsizlik.

Ob'ektiv: umumiy axvoli ogir, teri qatlamlari okargan. O'pkasida vezikulyar nafas, yurak tonlari keskin bo'g'iklashgan. YUQS - 160 ta/min. AB 100/70 mm. sim. ust . EKG: QRS kompleksi kengaygan, 0,12 sek. dan katta. S-T segment va T ish asosiy tishga nisbatan diskordant joylashgan. R tishcha yo'q.

1. Bu bemorda qaysi ritm buzilishi haqida o`ylash kerak?
2. Xurujni bartaraf kiling.
3. Mazkur bemorda ritm buzilishining sababi va patogenezining sababi?

TASNIFLAR

PNEVMONIYALAR TASNIFI

I. SHakliga ko`ra

Nogospital (birlamchi, ambulator)
Gospital (ikkilamchi, nozokomial)
Atipik (ikkilamchi, nozokomial)

Aspiratsion pnevmoniya

Immun tanqis bemorlardagi pnevmoniya

II. O`pka to`qimasining zararlanishi va tarqalishga ko`ra

Bo`lakli (asosan pnevmokokkli)

O`choqli bronxopnevmoniya

Interstitsial

Segmentar, polisegmentar

III. Kechishiga ko`ra

O`tkir kechuvchi (4 hafta davomida)

CHO`zilgan (4 haftadan ortiq)

IV. Asoratlanishiga ko`ra:

Asoratsiz

Asoratlangan:

- ekssudativ plevrit
- o`pkaning destruktsiyasi
- infeksion toksik shok
- perimiokarditlar
- plevra epiemasi va b.

Bronxial astma tasnifi (G. B. Fedoseev 1988 yil.)

I. Bronxial astma rivojlanishi etaplari.

Amaliy sog`lom kishilarda tug`ma yoki orttirilgan biologik nuqsonlar va o`zgarishlarning mavjudligi, ya`ni:

a) mahalliy va umumiy immunitetning o`zgarishi.

b) «tez javob qaytarish» reaksiyasi (semiz xujayralar, makrofaglar, eozinofillar, trombositlar) mavjudligi.

v) mukotsiliar klirens o`zgarishi.

g) endokrin tizim o`zgarishi

